

## VOYAGA YETMAGANLAR O'RTASIDA DELINKVENT XULQ-ATVOR VA PROFILAKTIKASI

*Tojiboyeva Nargiza Axmatjanovna*

*Toshkent viloyati Yangiyo'l tumani MMTBga qarashli 23– umumiy o'rta ta'lim maktab amaliyotchi psixologi*

**ANNOTATSIYA:** Mazkur maqolada *delinkvent xulq-atvor tushunchasi va uning turlari, delinkvent xulq-atvorni olib keluvchi sabablari va omillari, delinkvent xulq-atvordagi o'quvchilar bilan ishlash profilaktikasi, diagnostikasi va korreksion ishlar mazmuni, guruhlarda ishlash, delinkvent xulq-atvordagi o'quvchilar bilan ishlash shakllari*

**Kalit so'z va iboralar:** o'quvchi, psixik xususiyatlar, xulq-atvor, inqiroz davr, *delinkvent xulq-atvor, profilaktika, diagnostikasi va korreksion ishlar.*


**Delinkvent xulq-atvor shakllanishining shaxsiy shart-sharoitlari:**

- Qondirilmagan ehtiyojlar
- Psixofiziologik buzilishlar
- Dezadaptiv emotsional-irodaviy sifatlar
- Aqliy rivojlanish xususiyatlari
- Pedagogik qarovsizlik
- Asotsial va dezadaptiv xulq-atvor tarzi (Stereotip)
- Noto'g'ri, xato tasavvurlar va e'tiqodlar
- Hal qilinmagan shaxsiy muammolar, shaxslararo nizolar
- O'ziga ishonmaslik, o'zini yetarli darajada baholamaslik
- Madaniyat darajaning pastligi, ijtimoiy-foydali manfaatlar shakllanmaganligi
- Shaxsning qonunga zid yo'nalganligi

*Delinkvent xulq-atvorning turlari va shakllari:*


- kichik o'g'irlik
- bosqinchi o'g'irlik
- F
- ta'magirlik
- (
- k
- vandalizm, o't qo'yish
- mulkni yo'q qilish
- enjamlarni o'g'irlash kabi moddiy foyda ko'rishga
- r
- f
- )
- y
- a
- k
- xo'rlash
- ,
- 





**Delikvent xulq-atvorni olib keluvchi sabablari va omillari**

**Delinkvent xulq-atvorga sabab bo'ladigan eng muhim omillar:**



**O‘quvchilarda delinkvent xulq-atvorning kelib chiqishiga sabab bo‘ladigan xavf omillari:**

**Shaxsiy xavf omillari:**

- **Huquqbuzarliklarni oqlash, qonunga salbiy munosabat**
- **O‘z xatti-harakatining tanqidiyligi, nima bo‘layotganini tushunmaslik**
- **Aniq emotsional xususiyatlar**
- **Qo‘zg‘aluvchanlik, impulsivlik, notinch agressivlik va asabiylashish, o‘zini tuta olmaslik**
- **Diqqatni jalb qilish istagi yoki oshkoralik**
- **Kognitiv qobiliyatlarning pastligi**
- **Psixotrop moddalardan foydalanish**
- **Kuchli taassurotlar olishga intilish, sarguzashtli zavqlarni izlash**
- **Zararli ta’sirlarga qarshi tura olmaslik**

**Ijtimoiy xavf omillari:**

- **Ota-onalar tarbiya usullarining tizimsizligi**
- **Haddan tashqari nazorat yoki nazoratsizlik**
- **Yaqinlari bilan yomon munosabatlar, jismoniy yoki emotsional zo‘ravonlik tajribalar**
- **Kattalar o‘rtasida bolalarning yosh xususiyatlari haqida bilimlarning yetishmasligi va qiyin vaziyatlarni qanday yengishni bilmaslik**
- **Kattalar tomonidan bolaning qobiliyatini salbiy baholash**
- **Maktabdagi nizolar, tengdoshlarning e’tiborsizligi.**
- **Bola yoki o‘smirning muhiti asosan delinkvent xulq-atvorli bolalardan iborat yoki shunga o‘xshash xulq-atvor muammolari bo‘lgan kattalardan iborat.**
- **Bolalarning dam olishi va bo‘sh vaqtini tashkil etilmaganligi**
- **Bola o‘zining ijtimoiy muhitida yoki OAVlarda kuzatadigan jinoiy harakatlar, zo‘ravonlik, shafqatsizlik, jazosizlik misollari**

**O‘smirda delinkvent xulq-atvor shakllanishiga oiladagi holatlarning ta’siri:**

- **ko‘pincha to‘liq bo‘lmagan oilalarda hukmron bo‘lgan, ajralish holatlarida, bolalar va ota-onalarning alohida bir-biridan uzoqda yashaydigan oilalarda tarbiyaviy ta’sirlarning ziddiyatli uslubi;**
- **bolaga yagona yondashuv va umumiy talablar ishlab chiqilmagan, oilada ota-onalar tomonidan tizimsiz tarbiya mavjud emas, barcha narsaga ruxsat berish yoki tashlab qo‘yish, nazoratsizlik yoki ortiqcha nazorat;**
- **ta’lim va oila ichidagi munosabatlarning nomutanosib uslubi;**

- tartibsiz oiladagi munosabatlarning asotsial uslubi. Bu spirtli ichimliklar, giyohvand moddalarni muntazam iste'mol qilish va asossiz "oilaviy shafqatsizlik" va oilada jismoniy yoki ruhiy zo'ravonlik, kuch ishlatish;
- ota-onalar tomonidan mehr va g'amxo'rlikning sezilarli darajada yetishmasligi (bu o'z navbatida, bola uchun jarohatli kechinmalarni keltirib chiqaradi);
- o'tkir psixologik jarohatlarning oqibatlaridan bola o'zi chiqib keta olmaydi (ota-onaning kasalligi yoki o'limi, ajralish, zo'ravonlik);
- oiladagi og'ir psixologik muhit, ota-onalar o'rtasidagi doimiy nizolar;
- jinoiy, g'ayriijtimoiy xatti-harakatlarni ko'rsatadigan va buni odatiy hol deb hisoblaydigan kattalar tajribasi.



#### **Delinkvent xulq-atvorning psixologik profilaktikasining asosiy vazifalari:**

- hayotga nisbatan munosabatni qadrlash
- nizolar va konstruktiv bo'lmagan o'zaro ta'sirlarning oldini olish
- ota-ona va bola munosabatlarini yaxshilash, oiladagi muammolarni profilaktikasi
- zo'ravonlik
- jinoyatchilik va giyohvandlik xulq-atvorining profilaktikasi
- o'quvchilarning mas'uliyatli va xavfsiz xulq-atvor ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat.



### Delinkvent xulq-atvordagi o‘quvchilar diagnostikasi

#### Diagnostika usullari:

- kuzatishlar
- suhbatlar
- so‘rovnomalar
- testlar
- bola faoliyatini tahlil qilish va boshqalar.

#### Delinkvent xulq-atvordagi o‘quvchilar diagnostikasi metodikalari

- “Kaktus” metodikasi
- “Mavjud bo‘lmagan hayvon” proyektiv metodikasi
- “Agressivlik darajasini aniqlash” metodikasi (A. Bass va M. Perri

#### so‘rovnomasi)

- "Ruhiy holatlarning o‘zini o‘zi baholashi" testi (G. Ayzenk)
- "Qiyin vaziyatlarni hal qilish" so‘rovnomasi
- "Boshqalarni qabul qilish shkalasi" (V. Feya)
- Shaxslararo munosabatlar so‘rovnomasi (V. Shuts)
- “Shaxslararo munosabatlarni diagnostika qilish usuli” test Liri
- "Ijobiy va salbiy sifatlar" metodi
- Kettellning “Madaniy muhit ta’siriga bog‘liq bo‘lmagan intellekt

#### testi”

- Xavotirlanish darajasini aniqlash metodi (J. Teylor).
- “Sog‘liq, faoliyat va kayfiyat diagnostikasi” metodi
- “Sehrli barmoqlar” stress darajasini aniqlash metodi

Delinkvent xulq-atvordagi o‘quvchilar bilan olib boriladigan korreksion ishlar

Korreksion-rivojlantiruvchi ishlarining shakllari:

individual va guruhlarda o‘tkaziladi

- profilaktik suhbatlar
- treninglar-korreksion suhbatlar
- maslahatlar
- psixologik o‘yin, mashqlar
- mutaxassislar bilan uchrashuvlar
- art terapiyalar va boshqalar

### **Delinkvent xulq-atvorli bolalar bilan ishlashda qoidabuzarliklar bo‘yicha tizimlashtirish:**

- ta’lim olishdagi buzilishlar
- xatti-harakatlardagi buzilishlar
- muloqotdagi buzilishlar
- o‘z-o‘zini anglashdagi buzilishlar.



### **Delinkvent xulq-atvordagi o‘quvchilar bilan o‘tkaziladigan korreksion treninglar**

- “Salbiy ijtimoiy ta’sirga qarshilik ko‘rsatish” treningi. Trening davomida delinkvent xulq-atvoriga munosabat o‘zgaradi.
- “Ta’sirchanlikni yoki affektiv qiymatni o‘rgatish” treningi. Guruhdagi psixologik ish jarayonida mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalari shakllanadi, o‘zini o‘zi qadrlash ortadi, o‘zini o‘zi qadrlash va ijobiy qadriyatlarni rivojlantirish jarayonlari rag‘batlantiriladi.
- “Hayotiy ko‘nikmalar” treningi. Shaxsning eng muhim ijtimoiy ko‘nikmalarini shakllantirish.
- “O‘z vaqtini rejalashtirish sirlari. taym-menejment” treningi (“Men o‘zim” dasturidan)
- “Hissiyotlar va emotsiyalarni boshqarish sirlari” treningi (“Men o‘zim” dasturidan)
- “Bizning kuchli va zaif tomonlarimiz” treningi (“Men o‘zim” dasturidan)
- “Munosib hayot formulasi” treningi (“Men o‘zim” dasturidan)
- "Men" va "Biz" treningi (“Men o‘zim” dasturidan)

- “O‘zini anglash, prognoz qilish hamda qiyinchiliklarni yengib o‘tish qobiliyatini rivojlantirish” trening mashg‘uloti
- “O‘zimizdagi his-tuyg‘ularini anglash va xavfsiz namoyon qilishni o‘rganamiz” trening
  - “Tanqidiy va ijodiy fikrlash” (Soft skills)
  - “Shaxslararo munosabatlar samaradorligi” (Soft skills)
  - “Bahslarni boshqarish o‘rganish” (Soft skills)
  - “O‘zaro munosibatlarni boshqarish” (Soft skills)
  - “To‘siqlarni yengib o‘tish. Qiyinchiliklarni yengishda samarali usullar” treningi.
  - “Xuquqlarim olamiga sayohat” treningi (Oilaviy fakultativ mashg‘ulotlar)
  - “Oila va oilaviy qadriyatlar” treningi (Oilaviy fakultativ mashg‘ulotlar)

### XULOSA

Mamlakatimizda huquqiy demokratik davlat poydevori qurilmoqda. Bunda davlat qurishni huquqiy savodxon, huquq madaniyatini mustahkam egallagan yosh avlod amalga oshiradi. Buyuk davlatni qurish uchun barkamol inson tarbiyalanmog'i zarur. Shu sababli yoshlarni huquqiy davlat tizimi va mohiyatini chuqurroq anglashi, qonun asoslarini bilishi, qonun hurmat qilishi, ularga so'zsiz bo'ysunishi madaniyatiga ega bo'lishi ruhida tarbiyalash bugungi kunning asosiy vazifasidir.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Abdurasulova. Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi va uning oldini olish muammolari. —Qonun himoyasidal T. №1. 2001y. 23 bet.
2. Каримова Л.И. Социальная психология и реклама: Учебное пособие для вузов. Т.: Издательскополиграфический творческий дом им. Г.Гуляма, 2004. С. 20.
3. Giddens E. Sotsiologiya. Toshkent - Sharq, 2002.
4. B.A.Aliyev., G'.Rafiqov., T.Sultonov., M.Mullajonova., B.Rahmonov. Sotsiologiya. O'quv qo'llanma. - T.: 2005,120-127 b
5. [http// www.sociologu.ru](http://www.sociologu.ru).